



BADIY ADABIYOTDA OTA TIMSOLI

G'ofurova Madinaxon Odiljon qizi
ToshDO'TAU TNA(ingliz tili) fakulteti,
2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va chet el badiy adabiyotidagi otalar obrazi o'r ganilgan. Otaning hayotimizda tutgan o'rni rus yozuvchisi Aleksandr Grin va o'zbek adibi Hamid Olimjonning asarlari misolida tahlil etilgan va ularning xarakterlari misollar orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ota timsoli, an'anaviy obraz, xarakter, qissa, majburiyat, tarbiya.

Abstract. This article examines the image of fathers in Uzbek and foreign fiction. The role of our father in our lives is analyzed on the example of the works of the Russian writer Alexander Grin and the Uzbek writer Hamid Olimjon, and their characters are revealed through examples.

Keywords: father image, traditional image, character, story, commitment, upbringing.

Adabiyot hayotni badiiy obrazlar va vositalar yordamida tasvirlash vositasidir. San'atning hech bir turi inson ruhiyati, tuyg'ular va ichki kechinmalari haqida adabiyotchalik aniq tasvir va real xulosalarni bera olmaydi. Adabiy asar voqealarini tasvirlashda yozuvchilar real hayotdagi obrazlardan foydalanadilar. Badiiy adabiyot syujetida ana shunday muhim rol o'ynaydigan an'anaviy obrazlardan biri – "ota" obrazidir.

Jahon adabiyotida otalar obrazi ko'p asarlarda muhim o'r in tutadi. Bu obrazlar farzandlarga bo'lgan mehr-muhabbat, tarbiya, hayotiy tajriba va qiyinchiliklarni ko'rsatish ruhida tasvirlanadi. Misol uchun buyuk rus adibi Shekspirning "Qirol Lir" asarini olaylik. Bu tragediyada Qirol Lirning uch qizi bilan munosabatlari ko'rsatilgan. Ushbu asarda ota murakkab va fojiaviy qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Qirol Lir o'z qizlariga bo'lgan mehr-muhabbati va noto'g'ri qarorlari tufayli katta fojiaga duch keladi.

Yoki Lev Tolstoyning "Anna Karenina" asaridagi Aleksandr Karenin obrazida ota sifatida insoniy va qonuniy burchlarni bajarayotgan, ammo hissiyotlaridan yiroq bo'lgan inson tasvirlangan bo'lsa, Cormak Makkartining "Yo'l" romanida post-apokaliptik dunyoda tirik qolishga harakat qilayotgan va barcha qiyinchiliklarga qarshi kurashib, o'z o'g'lini himoya qilayotgan ota hikoya qilinadi.

Yana bir rus yozuvchisi Aleksand Grinning "Alvon yelkanlar" qissasida ham ota obrazi muhim o'r in tutadi. Assol go'daklik chog'ida onasidan ajrab qoldi. Otasi esa o'zini qizalog'ining tarbiyasiga bag'ishlaydi. Suyukli ayoli vafotini eshitishi bilan qiziga g'amxo'rlik qilish uchun ishidan bo'shamdi va "Orzu va umidi, muhabbat va shirin xotiralarini mana shu murg'akkina vujudga jamlab, nuridiydasining kemtik qalbini



mehr-muhabbat bilan butlashga bel bog'ladi", [2,6] va yig'ib-tergan bor mol-mulkarini sarflaydi. Bisotida hech narsasi qolmaganiga qaramay, ruhan sinmadi. Qizchasi baxtli yashashi uchun qo'lidan kelganini qildi. Ammo qasos o'tida yonib, qishloq doshi Mannersdan o'ch olishi o'ziga ham, qizchaga ham qimmatga tushadi. Ular jamiyatdan ajrab qoladi, shunga qaramay, Assol mo'jizalarga ishonch ruhida tarbiyalandi. Qizaloq keksa masalchi Egilning bashoratiga ishonib, xayolparast bo'lib qoladi. "Keksa dengizchi qizalog'ining hayajonli hikoyasini xayolot mahsuli degan o'yda e'tiborsiz qoldirmoqchi bo'ldi-yu, biroq bir narsa yodiga tushib, taqa-taq to'xtadi. Aytishlaricha, bolalarning hayotida ulkan o'zgarishlar yuz berishi kattalarning har bir narsaga jiddiy e'tibor qaratib, ularga ishonch bildirishi bilan bog'liq ekan..." [2, 31] Otasining o'z orzularini qo'llab-quvvatlashi, ular bir kun, albatta, amalga oshishiga ishontirishi qizchani hayotda yashab qolishiga va o'z orzusiga erishishiga ko'maklashdi desak xato bo'lmaydi.

Bu asarda yana bir ota obrazi mavjud. U shahzoda Artur Greyning otasi Lionel Grey. U "o'zi mansub bo'lgan kiborlar jamiyatining tartib-qoidalariga, ularning manfaatlari ustuvor bo'lgan qonunlarga og'ishmay amal qiladigan, dunyoga ruju qo'ygan" [1,23] kishilardan bo'lganligi bois o'g'lini ham o'zidek tarbiyalashga intilardi. Biroq Artur Grey "yonib turgan qalb bilan" bilan tug'iladi va o'zi xohlagan hayotda yashashni xohlardi. Otasi ich-ichidan bunga rozi bo'lsa-da, ajdodlari oldidagi majburiyati o'g'liga imkon berishiga yo'l qo'ymasdi. Aksincha, o'g'lining bir necha asrlik an'analarga bepisandlik bilan qarayotganidan qattiq ranjirdi, ammo asosiy vaqt davlat ishlari bilan o'tganligi sababli o'g'liga kam vaqt ajratardi.

Ko'rinish turibdiki, yozuvchi bitta asarda ikki xil xarakterdagи otalarni mohirona tasvirlab, otaning farzand hayotida qanchalik muhim rol o'ynashini ko'rsatib beradi.

Hammamizga ma'lumki, o'zbek adabiyotida deyarli barcha yozuvchilarining badiiy asarlarida ona obraziga ko'proq urg'u beriladi. Misol uchun bиргина O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasini olaylik, bu asarda o'zbek onalari haqiqiy timsol darajasiga ko'tarilgan. Shuning uchun ham o'zbek adabiyotida ota timsolidagi asarlar kam, ammo umuman yo'q emas. Masalan, Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida o'zbek otalarining chinakam timsoli aks etgan deya olamiz. Ushbu roman orqali haqiqiy o'zbek otalari qanday bo'lishi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Asarning ilk sahifasi xuddi "Dunyoning ishlari" qissasidek "Barcha otalarga bag'ishlanadi" degan jumla bilan boshlanadi. Shuning uchun ham bu asar O'tkir Hoshimov dunyoning barcha onalariga atab yozgan qissa kabi sevikli bir asardir.

Oybekning "Hayot-mamot" asarida ham Azizbek obrazida ota sifatida bolalarining kelajagi va ularning tarbiyasi uchun katta mas'uliyat his qiluvchi shaxs tasvirlangan. Azizbekning bolalari bilan bo'lgan munosabatlari asarning muhim qismi hisoblanadi.

Garchi Chingiz Aytmatov qirg'iz yozuvchisi bo'lsa-da, uning asarlari o'zbek adabiyotida ham muhim o'rin tutadi. Masalan, "Oq kema" asarida bolaning o'gay otasi O'rozqul obrazida bolaga bo'lgan munosabatlar va otalik mas'uliyatlari yoritilgan.



Yana bir o'zbek otasining jasoratini ko'rsatib beradigan asar Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" asaridir. Bu asarning bosh qahramoni Oygul bo'lishiga qaramay, uning barcha jasurliklarida, qat'iyiliklarida otasining bergen tarbiyasi sabab bo'ladi deb hisoblayman. Chunki Oygul otasi kabi mard, jasur va qalbida ozodlikka erishish alangasi bilan ulg'ayadi. Oygulning otasi qullar qo'zg'oloniga boshliq bo'ladi va xon qarshisida ham o'zini mardonavor tutadi. Ammo bu isyon tufayli qizining ko'z o'ngida xon tarafidan boshidan judo etiladi. Qalbidagi bu olov qizning yuragida ham so'nmaydi va asar so'ngida Oygul otasining istagini bajaradi- xalqini zolim xondan qutqaradi.

Yuqorida tahlil qilgan asarimizdagи Assol ham yoshligidan orzu-umid ruhida tarbiyanlangani uchun o'z orzusiga erishgandi, Oygul esa xayolotga berilmadi, xalqi va otasi uchun qasos olish yo'lida ko'p qiyinchiliklardan o'tdi va yori Baxtiyor bilan xonga qarshi g'alaba qozonguncha kurashdi.

Bu ikki asar badiiy adabiyotdagi otalar obrazining turli jihatlarini ko'rsatadi va ularning farzandlariga bo'lgan munosabatlari, mas'uliyatlari va tarbiyasidagi o'rnnini yoritadi. Ota obrazlari orqali adabiyotda oilaviy qadriyatlar va insoniy munosabatlar ko'rsatiladi.

Ota timsolining adabiyotda tasvirlanishi, ularning farzandlari bilan bo'lgan munosabatlari va hayotiy tajribalari orqali muhim ahamiyatga ega bo'lib, asarlar mazmuni va mavzusini boyitadi. Bu timsollar orqali biz hayot yo'limizda onamiz qanchalik ahamiyatli bo'lsa, otamiz ham shunchalik muhim ekanligini anglashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Oygul bilan Baxtiyor". Hamid Olimjon. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent 1999.
2. "Alvon yelkanlar". Aleksandr Grin. Toshkent Yoshlar matbuoti, 2023. Rus tilidan Fozil Tilovat tarjimasи.
3. "O'zbek badiiy adabiyotida ota obrazi". Mushtariy Bozorboyeva Maxammamatjon qizi.
4. Улугбек Ҳамдам. "Ота". Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – 140- б